

Buxoro viloyati bo‘linmasi tomonidan 2025-yilning 9-oylik HISOBOTI

I. Hududiy bo‘linma mablag‘larining taqsimoti va ijrosi yo‘nalishida:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbiri to‘g‘risida”gi 124-sonli Farmoni hamda Buxoro viloyati Kengashi (dekabr oyida) tomonidan **2025-yil** uchun mahalliy byudjetni tasdiqlash to‘g‘risidagi qabul qilingan qaroriga asosan Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining Buxoro viloyati bo‘linmasiga jami **5 067, 967 mln. so‘m** mablag‘ ajratilgan.

Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha Parlament komissiyasining 2025-yil 24-fevraldagi 01-10/6-sonli qarori bilan ajratilgan mablag‘lar fuqarolik jamiyati institutlarini davlat subsidiyasi, davlat ijtimoiy buyurtmasi va davlat granti shaklida ko‘llab-quvvatlash va hududiy bo‘linmaning ma‘muriy xarajatlari uchun taqsimlangan.

Jumladan,

1. Davlat subsidiyasi uchun jami 3217,09 mln. so‘m.

- O‘zbekiston Nogironlar jamiyati hududiy bo‘limlariga – **1075,06 mln. so‘m**;
- O‘zbekiston Ko‘zi ojizlar jamiyati hududiy bo‘limlariga – **1826,3 mln. so‘m**;
- O‘zbekiston Karlar jamiyati hududiy bo‘limlariga – **124,8 mln. so‘m**;
- O‘zbekiston Nogironlar assotsiatsiyasi hududiy bo‘limlariga – **190,93 mln. so‘m**.

Joriy yilning 1-oktyabr holatiga davlat subsidiyasi shaklida mahalliy byudjetdan ajratilgan mablag‘larning **2301,4 mln. so‘m 28 ta** fuqarolik jamiyati institutlariga ajratib berilgan.

2. Davlat ijtimoiy buyurtmasi uchun jami 0 mln. so‘m ajratilgan.

3. Davlat granti uchun jami 1353,87 mln. so‘m ajratilgan.

Parlament komissiyasining 2025-yil 30-apreldagi 01-10/17-sonli qaroriga asosan 2025-yil uchun bo‘linma tomonidan elektron platforma orqali hududdagi ijtimoiy muammolarni hal etishga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish mavzusida grant tanlovi e‘lon qilindi. Mazkur tanlovlar jami **6 ta** yo‘nalishini qamrab olgan bo‘lib, ushbu grant tanlovi uchun **440,0 mln. so‘m** ajratilgan. **6 ta** yo‘nalish uchun jami **40 ta** ariza qabul qilingan.

4. Hududiy bo‘linmaning joriy xarajatlari uchun 497,0 mln. so‘m ajratilgan.

II. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi doirasida:

– Davlat granti tanlovi yoʻnalishlarini ishlab chiqish maqsadida joylarda saqlanib qolayotgan muammolarni oʻrganish maqsadida Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi mablagʻlarini boshqarish boʻyicha Parlament komissiyasi raisi, Jamoat fondi direktori hamda mahalliy kengash deputatlaridan iborat ishchi guruh bilan birgalikda barcha hududlarda oʻrganish ishlari olib borildi.

– Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbiri toʻgʻrisida”gi 124-sonli Farmonining mazmun mohiyatini targʻib qilish boʻyicha Buxoro viloyatidagi fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokida 32 ta seminarlar va davra suhbatlari oʻtkazildi.

– Buxoro viloyati boʻlinmasi tomonidan “Bir million” daraxt aksiyasi doirasida 78 ta yaqin mevali va manzarali daraxt koʻchatlari ekildi.

– Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi bilan birgalikda hududdagi fuqarolik jamiyati institutlari bilan ochiq muloqot tadbirlari tashkil etildi.

“Buxoro viloyati boʻlinmasi tomonidan 2025-yil 1-oktyabrga qadar 6 ta “Fuqarolik jamiyati institutlari” qabuli tashkil etildi. Qabulda 35 ta NNT ishtirok etdi va 105 nafar ishtirokchilar qamrab olindi. Haftalik qabul haftaning 1- kuniga oʻtqazilib kelinmoqda tashkilotlar bilan qabul jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida qatnashuvchilarning fikr mulohazalarini yigʻish kelgusi tanlovlarda takliflarni berishga xizmat qildi.

Shuningdek qabulda fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, davlat va jamiyat hayotida ularning faolligini yanada oshirish, ijtimoiy muammolar yechimiga qaratilgan tashabbus va loyihalarni amalga oshirish kabi masalalar yuzasidan fikr almashildi. Davlat granti va ijtimoiy buyurtmalarni ajratish bilan bogʻliq barcha jarayonlar shaffofligini taʼminlashga qaratilgan ngo.gov.uz yagona elektron platformasi imkoniyatlari haqida jamoat fondi mutaxassislari maʼlumot berdi.

II. Ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish yoʻnalishida:

– Buxoro viloyatida 10 ta jamoatchilik nazorati tadbirlarida ijtimoiy binolarda nogironligi boʻlgan fuqarolar uchun panduslar, bino eshiklarning ostonalari va ulardagi hojatxonalar eshiklari, shuningdek aeroportda, banklarda va temir yoʻl vokzali va avtovokzallardagi kassalar nogironligi boʻlgan shaxslar uchun moslashtirildi. Koʻzi ojiz fuqarolar uchun taktil yoʻlakchalar oʻrnatilishiga erishildi.

– Buxoro viloyati boʻlinmasi va Adliya boshqarmasi bilan hamkorlikda moliyaviy va huquqiy yoʻnalishda 5 ta seminarlar tashkil qilindi.

IV. Jamoatchilik bilan aloqalar va OAV bilan ishlash yoʻnalishida:

Bo‘linma faoliyati, sohada amalga oshirilayotgan ishlar hamda loyihalar natijalarini OAV va ijtimoiy tarmoq sahifalarida targ‘ib qilishga e‘tibor qaratilmoqda.

2025 yilda Davlat granti, Davlat ijtimoiy buyurtmasi tanlovlarini e‘lon qilish uchun joriy yilning **4 mart** kuni Buxoroda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Unda viloyat Kengashi deputatlari, Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi Buxoro viloyati xodimlari, viloyatdagi nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi. **26-27-mart** kunlari viloyatimiz hududida Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi bo‘lim boshlig‘i **Zuhro Ibragimova** Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi deputati, Parlament komissiyasi a‘zosi **Madina Baratova** hamda mahalliy kengash deputatlaridan iborat ishchi guruh viloyatining **Buxoro, Kogon shaharlari Buxoro, Kogon Shofirkon, Qorovulbozor, Vobkent** tumanlaridagi jami **12 ta mahalla**larda o‘rganish ishlari olib borildi. O‘rganishlar jarayonida aholi uchun ma‘naviy muhit yaratish, daromadini oshirish, toza ichimlik suvi va tomorqa uchun oqova suv bilan ta‘minlash hamda o‘z yechimini kutayotgan ijtimoiy ahamiyatga ega **150 ta ortiq** muammolarga, va boshqa masalalarga e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu muammolarning manzilli va samarali yechimiga qaratilgan grant tanlovlar e‘lon qilinishi rejalashtirilgan. Hamda davlat subsidiyalarni manzilli aniq muammolarni bartaraf qilish uchun yo‘naltirish rejalashtirilgan.

Mamlakatimizda Davlat rahbari tashabbusi bilan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Buxoro viloyatida ham ko‘plab xayrli tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tashabbusi bilan Buxoro shahridagi NNT va do‘stlik uyida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘chat ekish tadbiri o‘tkazildi.

Unda viloyat Kengashi deputatlari, NNT va viloyatdagi milliy madaniy markazlari rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Ishtirokchilar tadbir doirasida NNT va do‘stlik uyi oldidagi bog‘da mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ekdi.

Soha mutaxassislari yig‘ilganlarga yagona elektron platformadan foydalanish bo‘yicha tavsiyalarini berib o‘tdi.

Ta‘kidlandiki, mazkur hujjat fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi bevosita ishtiroki uchun yangi imkoniyatlar va ijtimoiy sheriklik institutini rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratib, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Muloqot tarzida o'tgan tadbir yakunida farmonning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish va uning ijrosini samarali ta'minlanishida davlat organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining hamkorligini faol yo'lga qo'yish masalalari bo'yicha takliflar bildirildi.

Shuningdek, yig'ilishda Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi Buxoro viloyati bo'linmasi, viloyatdagi Milliy madaniy markazlar, viloyat Kar va soqovlar, viloyat Ko'zi ojizlar, viloyat Nogironlar jamiyati, hamda viloyat Nogironlar Assotsiatsiyasi tomonidan 1-chorakda amalga oshirilgan ishlar muhokama qilindi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

Joriy yilning **8-aprel kuni** Buxoroda Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi viloyat bo'linmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mazmun-mohiyatini tushuntirish bo'yicha o'quv-seminar tashkil etildi. Unda Oliy Majlis Senati a'zosi, shahar kengashi deputatlari, viloyat, shahar Mahallalar uyushmasi mas'ullari, viloyatdagi NNTlar, Buxoro shahridagi mahalla fuqarolar yig'ini raislari va ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi. Seminarda fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, davlat va jamiyat hayotida ularining faolligini yanada oshirish, ijtimoiy muammolar yechimiga qaratilgan tashabbus va loyihalarni amalga oshirish kabi masalalar yuzasidan fikr almashildi. ZOOM platformasi orqali o'tgan o'quv-seminarida davlat granti va ijtimoiy buyurtmalarni ajratish bilan bog'liq barcha jarayonlar shaffofligini ta'minlashga qaratilgan ngo.gov.uz elektron platformasi imkoniyatlari haqida Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mutaxassislari ma'lumot berdi. Quyidagi yo'nalishlar buyicha ma'lumotlar berildi. Fuqarolik jamiyati institutlarini faolligini oshirish, hamda ijtimoiy iqtisodiy madaniy ma'naviy va gumanitar sohalarni rivojlantirishda ularning salohiyatidan to'laqonli foydalanish, aholining haqiqiy ehtiyojlarini ko'zlagan joylarda saqlanib qolayotgan dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarni ruyobga chiqarishga ko'maklashish. Davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida o'zaro manfaatli ijtimoiy sheriklikni yanada rivojlantirish. Soha mutaxassislari yig'ilganlarga yagona elektron platformadan foydalanish bo'yicha tavsiyalarini berib o'tdi.

Ta'kidlandiki, mazkur hujjat fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi bevosita ishtiroki uchun yangi imkoniyatlar va ijtimoiy sheriklik institutini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratib, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Muloqot tarzida o'tgan tadbir yakunida farmonning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish va uning ijrosini samarali ta'minlanishida davlat organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining hamkorligini faol yo'lga qo'yish masalalari bo'yicha takliflar bildirildi. Shuningdek, yig'ilishda Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi Buxoro viloyati bo'linmasi, viloyatdagi Milliy madaniy markazlar, viloyat Kar va soqovlar, viloyat Ko'zi ojizlar, viloyat Nogironlar jamiyati,

hamda viloyat Nogironlar Assotsiatsiyasi tomonidan 2-chorakda amalga oshirilgan ishlar muhokama qilindi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

16-aprel kuni O‘zKOJ Buxoro viloyat bo‘limi raisi J Raxmatov, hisobchisi S.Saidov va O‘zKOJ Peshku bo‘linmasi raisasi Sh.Sharipovalar bilan birgalikda Peshku tuman bo‘linmasi 2024-yil oktyabr oyida Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining Buxoro viloyati bo‘linmasi tomonidan e‘lon kilingan grant tanlovida “Ijtimoiy tenglik sari” loyihasi bilan qatnashib 58 450 000 ming so‘mlik Grant loyixasini amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yig‘ilish bo‘ldi. 2024-yil 01-noyabrdan boshlab buyruq asosida ishchi xodimlar loyiha doirasida faoliyatini boshlagan. Tumandagi 10 nafar 35 yoshgacha bo‘lgan ijtimoiy ahvoli og‘ir jamiyat a‘zolari tanlab olinib 1 oy davomida xaftasiga 5 kun o‘kuv kurslari tashkil qilingan. Loyixa davomida 4 nafar davolanishga ehtiyojman xotin-kizlar sixatgohlarda sog‘ligini tiklagan. 15 nafar xotin-kizlar sayoxatga olib boriladi. Grant loyixasi mablag‘lari kuyidagicha sarflangan. Ish xaqi xarajatlari 10 250 000 so‘m Tadbirlar o‘tkazish uchun 15 000 000 so‘m Moddiy texnik bazani mustaxkamlash uchun 10 500 000 so‘m Boshqa xarajatlar 749 250 so‘m hammasi bo‘lib 36 499 250 so‘m mablag‘ sarflangan hozirgi kunga kelib loyiha davom etmoqda kolgan mablag 21 950 750 so‘mni tashkil qilgan. Loyiha smetasidagi Toshkent shahriga sayyoxat Samarqand viloyatiga o‘zgartirildi. Buning o‘zgarish sababi aksariyat loyiha ishtirokchilari 1-2 gurux ko‘zi ojiz nogironlarning talablari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘rganildi.

22-aprel kuni Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondini Buxoro viloyati bo‘linmasi va O‘zbekiston “Tadbirkorlar va ishbilarmon ayollar” birlashmasi nodavlat notijorat tashkiloti raisi Mamlakat Sodiqova bilan birgalikda tadbir bo‘lib o‘tdi.

Bugungi kunda raqamli dunyo va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqatish hamda shaxsiy brendni shakllantirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, SMM (ijtimoiy media marketing) va mobilografiya (telefon orqali foto va video yaratish) sohalariga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

O‘zbekiston “Tadbirkorlar va ishbilarmon ayollar” birlashmasi nodavlat notijorat tashkiloti raisi Mamlakat Sodiqova tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar doirasida buxorolik xotin-qizlar aynan shu zamonaviy ko‘nikmalarni o‘zlashtirmoqda.

Bu treninglar Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan O‘zbekiston “Tadbirkorlar va ishbilarmon ayollar” birlashmasining “Mamlakatimizda xotin-qizlar manfaati doimiy e‘tiborda!” loyihasi doirasida tashkil etilmoqda.

23-aprel kuni Buxoroda “O‘zbekiston – Ozarbayjon aloqalari foto hujjatlarda” kitob-albomi”ning taqdimoti va “O‘zbekiston va Ozarbayjon ikki qardosh xalq” mavzusidagi arxiv hujjatlari ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi, Buxoro viloyati hokimligi, Abu Ali ibn Sino nomidagi viloyat Axborot-kutubxona markazi, Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati

institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi, viloyat Ozarbayjon milliy madaniy markazi bilan hamkorlikda o‘tkazildi.

Dastlab, O‘zbekiston va Ozarbayjon madaniyatini aks ettiruvchi sahna chiqishlar namoyish etildi. “O‘zbekiston va Ozarbayjon ikki qardosh xalq” mavzusidagi arxiv hujjatlari ko‘rgazmasida O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi hamda Ozarbayjon Milliy arxivi saqlorida mavjud bo‘lgan 1930-2023-yillar mobaynidagi davrni o‘z ichiga olgan ikki davlatning madaniy-gumanitar munosabatlariga oid 50 dan ziyod arxiv foto hujjatlar va ularning ilmiy-ma’lumot tavsiflari taqdim etildi. Ko‘rgazma iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat sohalaridagi hamkorlik, ikki xalqlarning adabiyot va san’at kunlari aks etgan hujjatlar tashrif buyuruvchilarda alohida taassurot qoldirdi.

24-aprel kuni Buxoro shahridagi nodavlat notijorat tashkiloti va Do‘stlik uyida Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondi viloyat bo‘linmasi tomonidan “O‘zbekiston – millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik yurti” mavzusida “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Unda viloyatdagi milliy madaniy markazi, nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining mazmun-mohiyati tushuntirildi.

Unda ta’kidlanganidek, bag‘rikenglik o‘zbek xalqi ma’naviyati va madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Yurtimizda nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalar, balki zaminimizda istiqomat qilib kelayotgan turli millat va elatlar o‘rtasida do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlash, diniy bag‘rikenglik tamoyillarini qaror toptirishga ham alohida e’tibor qaratib kelinadi.

25-aprel kuni Buxoroda Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining Buxoro viloyati bo‘linmasi tomonidan joriy yilning 1-choragida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan matbuot anjumani o‘tkazildi. Unda fond xodimlari, NNTlar va ommaviy axborot vositalari vakillari, blogerlar qatnashdi.

Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi “2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbiri to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining Buxoro viloyati bo‘linmasiga 2025-yildagi faoliyati uchun jami 5 067 967 000 so‘m pul mablag‘lari ajratildi.

Jamoat fondi tomonidan joriy yilning **29-aprel** kuni Jondor tumani hokimligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdani 124-sonli “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni yuzasidan o‘quv-seminari o‘tkazildi. unda Xalq deputatlari viloyat va Jondor tumani kengashi deputatlari, viloyat, shahar Mahallalar uyushmasi mas’ullari, NNTlar, jondor tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘ini raislari va ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi. ZOOM platformasi orqali o‘tgan o‘quv-seminarida Tanlovlarni tahlil qilish, texnik baholash va muvofiqlashtirish bo‘limi (U.Xalbekova, Javohir Do‘stmurodov) xodimlari qatnashdi. Xodimlar seminar qatnashchilari savollariga javob qaytardi.shuningdek, Shuningdek, fond tomonidan e‘lon qilingan tanlovlarda “Tadbirkor ayol” Xalqaro ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi Jondor tumani hududiy bo‘limi “Ayol hunari-oila baxti” loyihasi 170 million so‘m, Jondor tumani “Qozikent” mahalla fuqarolar yig‘ini “Mahallada yashil energiyaga o‘tish bo‘yicha xabardorlikni oshirish” loyihasi 160 million so‘m, Jondor tumani “Mirzayon” mahalla fuqarolar yig‘ini “Yoshlar o‘rtasida tadbirkorlik keng ommalashtirish va biznes bilan shug‘ullanishga qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratish” loyihasi bilan ishtirok etib, 60 million so‘m grant mablag‘larini yutib olgan. Mazkur fuqarolik jamiyati institutlari olib borilgan ishlar Xalq deputatlari viloyat va Jondor tumani kengashi deputatlari va ommaviy axborot vositalari vakillari tomonidan o‘rganildi. Jarayonlar O‘zbekiston Milliy Axborot agentligi, Istiqlol-TV, “Buxoro-TV tomonidan suratga olindi.

Shuningdek, joriy yilning **1-may kuni** viloyat hokimi Botir Zaripov viloyatdagi 12 ta milliy madaniy markazi rahbarlari bilan uchrashdi. Viloyat rahbari milliy madaniy markazlari rahbarlarining murojaatlari tinglandi. Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan ajratilgan mablag‘lar yuzasidan axborot ham berib o‘tdim. Mazkur jarayon ijtimoiy tarmoqlarda yoritildi. OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgan barcha faoliyat, davlat ijtimoiy buyurtmasi va grantlari samaradorligini targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlar OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilayapti. Yoritilganlar Jamoat fondi Ijro etuvchi devonining matbuot kotibi (O.Norov)ga taqdim etib borilayapti.

13-may kuni Buxoroda Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tashabbusi bilan “Buxoro viloyatida ijtimoiy muammolarni hal etishga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish” mavzusidagi davlat granti **1-tanlovida** ishtirok etish masalasiga bag‘ishlangan seminar bo‘lib o‘tdi. Unda fond xodimlari, mahalliy Kengash deputatlari, viloyatdagi mahalla fuqarolar yig‘ini raislari, hokim yordamchilari, NNT vakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlari hamda blogerlar qatnashdi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mazmun-mohiyati, Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan e‘lon qilingan davlat granti tanlovi, loyihalarni taqdim etish hamda ngo.gov.uz platformasi imkoniyatlari haqida tushuntirish berildi.Seminarda fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, davlat va jamiyat hayotida ularining

faolligini yanada oshirish, ijtimoiy muammolar yechimiga qaratilgan tashabbus va loyihalarni amalga oshirish kabi masalalar yuzasidan fikr almashildi. ZOOM platformasi orqali o'tgan o'quv-seminarida davlat granti va ijtimoiy buyurtmalarni ajratish bilan bog'liq barcha jarayonlar shaffofligini ta'minlashga qaratilgan ngo.gov.uz elektron platformasi imkoniyatlari haqida Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mutaxassisleri tushuntirish berdi. O'quv-seminarda ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga soha mutaxassisleri tomonidan aniq javoblar oldi.

Shuningdek, yig'ilishda Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi Buxoro viloyati bo'linmasi, viloyatdagi Milliy madaniy markazlar, viloyat Kar va soqovlar, viloyat Ko'zi ojizlar, viloyat Nogironlar jamiyati, hamda viloyat Nogironlar Assotsiatsiyasi tomonidan 2-chorakda amalga oshirilgan ishlar muhokama qilindi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

2025-yil 19-may kuni Buxoro viloyati hokimi Botir Zaripovning navbatdagi sayyor qabuli odatdagidan boshqacha formatda o'tkazildi. Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi viloyat kengashi binosida viloyatda istiqomat qiluvchi ko'zi ojiz fuqarolar uchun sayyor qabul tashkil etilib, unda muammolari yechimidan umidvor bo'lib kelgan imkoniyati cheklangan fuqarolarning masalalari tegishlilik bo'yicha ko'rib chiqildi. Buning uchun shahar-tumanlardan tashrif buyuruvchi ko'zi ojiz fuqarolar va ularning kuzatuvchilariga zarur shart-sharoitlar yaratildi. Sayyor qabulda O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati markaziy boshqaruvi raisi Ergash Norpo'latov, aloqador viloyat boshqarma va tashkilotlari rahbarlari ishtirok etdi. Qariyb 3 soat davom etgan sayyor qabul jarayonida fuqarolardan asosan, uy-joy bilan ta'minlash, uy-joyini ta'mirlash, davolanish uchun yordam ko'rsatish, ishga joylashtirish, moddiy yordam ajratish, kredit olish, kommunal qarzdorlikni bartaraf etish va boshqa masalalar borasidagi muammolar bo'yicha murojaatlar qabul qilindi. Sayyor qabul davomida imkoniyati cheklangan fuqarolarning kundalik hayotda qiynab kelayotgan aksariyat muammolari o'z ijobiy yechimini topdi. Bugungi kunda viloyatda 3 ming 603 nafar ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi fuqarolar istiqomat qiladi. O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyatining viloyat bo'limi o'z atrofiga 3 ming nafardan ortiq 1-, 2-guruh nogironlarini birlashtirgan. Joylarda jamiyatning 12 ta shahar va tuman bo'linmalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati markaziy boshqaruvi raisi Ergash Norpo'latov Buxoro viloyati hokimi bilan muloqotda tegishli O'zKOJ xududiy bo'lim va uning nazoratidagi mahalliy bo'linmalar, ishlab chiqarish korxonalarini hamda hududdagi ko'zi ojizlar maxsus kutubxonalarini, ko'zi ojizlar maxsus dam olish markazlari va ko'zi ojiz bolalarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasi (internat-maktab) faoliyatidagi muammolarni hal etish masalalari ham ko'rib chiqildi. Bu ezgu ishlar aholining farovon hayotini ta'minlashga, bugungi kundan rozi b'olib yashashlariga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

23-may kuni Buxoro shahridagi NNT va Do'stlik uyida Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi rahbari Otabek Husanov tomonidan viloyatda faoliyat yuritayotgan fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan ochiq muloqot bo'lib o'tdi. Unda xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati, viloyat, shahar, tuman

Kengashlari deputatlari, viloyatda faoliyat olib borayotgan Nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlari, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda blogerlar qatnashdi.

Ochiq muloqotda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mazmun-mohiyati, Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan e'lon qilingan davlat granti tanlovi, loyihalarni taqdim etish hamda ngo.gov.uz platformasi imkoniyatlari haqida tushuntirish berildi. Muloqotda fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, davlat va jamiyat hayotida ularning faolligini yanada oshirish, ijtimoiy muammolar yechimiga qaratilgan tashabbus va loyihalarni amalga oshirish kabi masalalar yuzasidan fikr almashildi. Tadbir ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga soha mutaxassislari tomonidan aniq javob oldi. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar rahbarlarining murojaati ham tinglandi va ularda ko'tarilgan masalalar joyida muhokama qilindi va ijrosi ta'minlandi. Ochiq muloqotdan so'ng, O. Husanov viloyatda faoliyat olib borayotgan milliy madaniy markazlar faoliyati, ular uchun yaratib berilgan shart-sharoitlar o'rganildi. Ular bilan suhbat jarayonida amalga oshirilayotgan ishlar, Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan ajratilayotgan subsidiyalarning maqsadli ishlatilayotganligi va galdagi vazifalar muhokama qilindi.

Ayni kunda viloyatda 12 ta milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2021-yilda Buxoro shahri, Ibrohim Mo'minov ko'chasi, 30-uyda Nodavlat notijorat tashkilotlari "Do'stlik uyi" tashkil etilgan. Mazkur binoda milliy-madaniy markazlar uchun alohida xonalar ajratilib, zarur kompyuter jamlanmasi, axborot texnologiyalari, qattiq va yumshoq mebel bilan ta'minlangan. Hozirda bu maskanda 10 ta milliy madaniy markazi hamda 4 ta nodavlat-notijorat tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik mavzularida viloyat televideniyesida har haftada bir marotaba "Oltin silsila", tojik tilida "Poyomi ro'z", rus tilida "Nedelya" ko'rsatuvlari e'firga uzatib kelinmoqda. Xalq deputatlari viloyat Kengashi muassisligida "Buxarskiy vestnik" gazetasi rus tilida haftada ikki marotaba chop etilmoqda.

Milliy-madaniy markazlar tomonidan viloyatda istiqomat qilayotgan turli millatlarning urf-odatlarini, qadriyatlarini, kiyimlari hamda milliy taomlarini aks ettiruvchi "Sabanto'y", "Maslenitsa", "Xalqlar do'stligi kuni", "Bag'rikenglik haftaligi" kabi bayram tadbirlari o'tkazib kelinmoqda. Ishtirokchilar Qorako'l tumanida Davlat ijtimoiy buyurmasi asosida qurilayotgan O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati Qorako'l tumani bo'limining yangi zamonaviy binoda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishildi va kerakli maslahatlar berildi. Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi rahbari 2024-yilda foydalanishga topshirilgan O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati Buxoro viloyati Shofirkon o'quv ishlab chiqarish korxonasi ham bo'ldi. U yerda yaratilgan shart-sharoitlarni o'rgandi. O'tgan 2023-yilda O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati Buxoro viloyat bo'limining "Ezgulik ramzi" ijtimoiy loyihasi hamda Shofirkon tumani hokimligining davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida tumandagi ko'rishda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy va mehnat sharoitlarini

yaxshilash maqsadida bu yerdagi mavjud bino-inshootlarni rekonstruksiya qilishga kirishildi. Buning uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan 1 milliard 400 million so‘m miqdorida davlat subsidiya mablag‘i ajratildi. Loyiha doirasidagi ishlar nihoyasiga yetib, natijada “O‘rikzor Ipak yo‘li teskil” MCHJ qurilish tashkiloti tomonidan 225 metr kvadratdan iborat ishlab chiqarish sexi, 200 metr kvadratdan iborat ikki qavatli ma‘muriy bino yangilandi. Ma‘naviyat zali va savdo do‘koni uchun mo‘ljallangan obyekt qurildi.

Yana ikkita ishlab chiqarish sexi rekonstruksiya qilindi. E‘tiborli tomoni, umumiy hisobda 25 nafar ishchi-xodimga zamonaviy mehnat sharoiti yaratildi. Mazkur korxonada imkoniyati cheklangan, ayniqsa, ko‘rishda nuqsoni bor shaxslarning bandligini ta‘minlash, ularning jamiyat hayotida yanada faol bo‘lishi uchun muhim obyektga aylandi. **30-may kuni** Buxoroda “Demokratik islohotlar: fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyasi” mavzusida seminar tashkil etildi. Unda viloyat Adliya boshqarmasi, Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi, O‘zNNTMA vakillari, milliy madaniy markazlar, OAV hamda faoliyat yuritayotgan NNTlarning vakillari qatnashdi.

Tadbir Demokratik jarayonlarni tahlil qilish Markazi Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasi, Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondi viloyat bo‘linmasi hamda viloyat adliya boshqarmasi bilan hamkorlikda o‘tkazildi.– Tadbirdan ko‘zlangan asosiy maqsad fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki hamda jamoatchilik nazoratidagi rolini kuchaytirish, bu borada samarali mexanizmlar ishlab chiqishdan iboratdir. Seminar doirasida viloyatda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarining muammolari, tashabbuslari va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy yechimlar muhokama qilindi. Mahalliy ekspertlar ishtirokida sohani takomillashtirish bo‘yicha aniq va amaliy takliflar ishlab chiqildi. Shu bilan birga, davlat organlari va fuqarolik jamiyati subyektlari o‘rtasida samarali muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, doimiy muloqot platformasini shakllantirish ham asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. –Tadbir Prezidentimizning “2021 – 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda 2025-yil uchun qabul qilingan 288-sonli Hukumat qarori asosida amalga oshirildi. Tadbir ishtirokchilari fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyasi va ularning milliy islohotlardagi faol ishtiroki mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini qayd etdi. Seminarining yakunlari hududiy darajada amaliyotga yo‘naltirilgan yangi yondashuvlar uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining Buxoro viloyati bo‘linmasi tomonidan 2025-yil **2-iyul** kuni NNT va Do‘stlik uyida O‘zbekiston Ekologik partiyasi Buxoro viloyati Kengashi, “Qiziq yarim oy” jamiyati Buxoro viloyati bo‘linmasi, Buxoro shahar obodonlashtirish boshqarmasi bilan hamkorlikda “Toza hudud” aksiyasi bo‘lib o‘tdi.

Unda Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari, viloyatda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar, NNTlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Dastlab, NNT va Do‘stlik uyidagi majlislar zalida “Toza hudud” aksiyasi doirasida atrof-muhitni asrash, tozalikni saqlash va ekologik madaniyatni shakllantirish borasida tushunchalar berildi.

Shundan so‘ng, aksiya doirasida NNT va Do‘stlik uyi oldidagi bog‘da hamkor tashkilotlar bilan birgalikda bog‘ atrofi begona o‘tlardan va axlatlardan tozalandi, ko‘chat taglari yumshatildi va sug‘orildi. Maxsus texnikalar yordamida chiqindilar olib chiqildi obodonlashtirildi.

Aksiyada faol ishtirok etgan ishtirokchilar esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi. Loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar ommaviy axborot vositalari tomonidan yoritildi.

2025-yil 10-iyul kuni Buxoro shahridagi Do‘stlik uyida Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining viloyat bo‘linmasi tashabbusi bilan O‘zbekiston Ekologik partiyasi Buxoro viloyat Kengashi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi viloyat boshqarmasi hamkorligida “Suv hayot demakdir!” mavzusida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Tadbirida NNTlar, mahalla fuqarolar yig‘ini raislari hamda ommaviy axborot vositalari ishtirok etdi. Suhbat davomida suv resurslaridan oqilona foydalanish, iqlim o‘zgarishlari fonida suv taqchilligi, ichimlik suvini tejash, qishloq xo‘jaligida samarali sug‘orish texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, aholining ekologik savodxonligini oshirish kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi. Ishtirokchilar tomonidan bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yuzasidan takliflar bildirildi. Tadbir yakunida barcha ishtirokchilar jamiyatimiz va atrof-muhit barqarorligi uchun har bir tomchi suv qadrli ekanini yana bir bor chuqur angladi. Tadbir ishtirokchilari tomonidan mavzuga doir takliflar bildirildi. Buxoro shahar NNT va Do‘stlik uyida 2025-yil **17-iyul** kuni Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondining viloyat bo‘linmasi tomonidan “Hududlardagi ijtimoiy ahamiyatga ega muammolar yechimiga qaratilgan davlat granti tanlovi yakunlari” mavzusida matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi. Unda mahalliy Kengash deputatlari, nodavlat notijorat tashkilotlar rahbarlari, ommaviy axborot vositalari vakillari va blogerlar qatnashdi. Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 26-avgustda qabul qilingan “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi, davlat va jamiyat hayotida fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Hududlarda saqlanib qolayotgan muammolarni fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda hal etish, ularning tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish maqsadida Parlament komissiyasi a‘zolari va Jamoat fondi vakillaridan iborat ishchi guruh tomonidan joriy yilda respublikaning barcha hududlarida ijtimoiy ahamiyatga ega muammolar o‘rganilib, hududlar kesimida ushbu muammolar yechimiga qaratilgan “Buxoro viloyatida ijtimoiy muammolarni hal etishga

fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish” mavzusida davlat granti tanlovi e’lon qilingan edi.

Aholi bandligini ta’minlash, ijtimoiy muhofaza va sog’liqni saqlash, atrof-muhit va sanitar-gigiyenik holatni yaxshilash, ta’lim, madaniyat va sportni rivojlantirish, sog’lom turmush tarzini qaror toptirish, korrupsiyaga qarshi kurashish kabi yo’nalishlarni qamrab olgan grant tanloviga fuqarolik jamiyati institutlaridan ngo.gov.uz platformasi orqali Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan e’lon qilingan tanlovlarga viloyatdagi fuqarolik jamiyati institutlaridan viloyat tanloviga 24 ta, respublika tanloviga 32 ta loyiha taqdim etilgan. Taqdim etilgan loyihalar Parlament komissiyasi tomonidan ko’rib chiqildi. Viloyatdagi 13 ta fuqarolik jamiyati institutlarining loyihalari g’olib deb topildi. Ularga jami, 1 milliard 438 million so’m garnt mablag’lari ajratildi. Tadbirda tanlov g’oliblari bilan shartnomalar imzolandi va sertifikatlar topshirildi. Buxorodagi “Wiedergeburt” O‘zbekiston nemis milliy madaniy markazi viloyat bo‘limining tashkil topganiga 30 yil to‘ldi. Sana munosabati bilan markaz tomonidan do‘stlik va birodarlik kechasi tashkil etildi. Tadbir yana bir karra viloyatda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarini bir davra atrofida birlashtirdi.

Do‘stlik va birodarlik, qardoshlik aloqalarining chin ma’nodagi namunasi bo‘lgan tadbir davomida milliy madaniy markazlar o‘zlari hozirlab kelgan chiqishlari bilan nemis millatiga mansub hamyurtlarimizni qutlashdi. Shundan so‘ng, nemis milliy madaniy markazi tomonidan tayyorlangan bayram dasturi namoyish etildi va unda yoshlar ijrosidagi nemis milliy kuy qo‘shiqlari, raqslari o‘rin oldi. Tadbirda ishtirok etgan mehmonlar ham o‘z o‘rnida mamlakatimizda xalqlar va millatlararo do‘stlik va ittifoqchilik aloqalarining ko‘p yillik tarixiy ildizlari, bugungi kunda O‘zbekistonda istiqomat qilib kelayotgan turli millat vakillariga yaratilgan sharoit va imkoniyatlar, xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari haqida to‘xtalib bu yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikning asosini tashkil etishi ta’kidlandi.– Viloyatda 12 ta milliy madaniy markazlar faoliyat olib bormoqda. Buxoroda esa 40 ga yaqin millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Bugungi tinch, osoyishta yurtda barcha millat va elat vakillari birga umrguzaronlik qilib kelmoqda. Yurtimizga bayramlar yarashadi. Bugun esa mana shu markazimizning 30 yilligini do‘stlarimiz bilan birga ahil, inoq o‘tkazdik, – deydi viloyat bo‘limi rahbari Lubat Shtirsensbexer. Nemis milliy madaniy markazi rahbariyati uzoq yillar davomida ularga ko‘mak ko‘rsatib kelayotgan xomiy tashkilotlar, Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi va viloyat, shahar hokimligi vakillariga chuqur minnatdorlik bildirdi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligi hamda 30-iyul – Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan Buxoro davlat universitetida 2025-yilning **28-iyul**kuni Oliy majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi viloyat bo‘linmasi bilan hamkorlikda “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun” shiori ostida “Xalqlar do‘stligi – mamlakat birligi” mavzusida ma’naviy ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi. Unda viloyatdagi milliy madaniy markazlarning rahbarlari, universitet professor-o‘qituvchilar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi. Ko‘hna va boqiy Buxoro qadim sharq sivilizatsiyasi beshiklaridan biri sifatida asrlar davomida millatlararo

totuvlik va bag'rikenglik maskani bo'lib kelgan. Bugungi kunda ushbu an'analar munosib davom etmoqda. Viloyatda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyat yuritmoqda.

Buxoro shahridagi NNT va Do'stlik uyida O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat Kengashi tomonidan davlat mustaqilligining 34 yilligiga bag'ishlangan "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirda viloyatdagi mavjud 12 ta milliy madaniy markazlarning rahbarlari va ularning a'zolari qatnashdi. Unda Buxoro viloyat Kengashi raisi Maqsud Hamidov so'zga chiqib, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar, millatlar va konfessiyalar o'rtasidagi o'zaro hurmat, hamjihatlik va birdamlikning yurt taraqqiyotidagi o'rni haqida alohida to'xtaldi. Tadbirda turli millat va elat vakillari mamlakatimizda yaratilgan tinchlik va totuvlik muhiti teng imkoniyatlar, milliy urf-odat va an'analarni asrab-avaylash borasida o'z fikrlarini bildirdi. 2025-yil **13-avgust kuni** Buxoro shahridagi NNT va Do'stlik uyida O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat Kengashi tomonidan davlat mustaqilligining 34 yilligiga bag'ishlangan "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda viloyatdagi mavjud 12 ta milliy madaniy markazlarning rahbarlari va ularning a'zolari qatnashdi. Unda Buxoro viloyat Kengashi raisi Maqsud Hamidov so'zga chiqib, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar, millatlar va konfessiyalar o'rtasidagi o'zaro hurmat, hamjihatlik va birdamlikning yurt taraqqiyotidagi o'rni haqida alohida to'xtaldi. Tadbirda turli millat va elat vakillari mamlakatimizda yaratilgan tinchlik va totuvlik muhiti teng imkoniyatlar, milliy urf-odat va an'analarni asrab-avaylash borasida o'z fikrlarini bildirdi.

Shuningdek, O'zbekistonda turli millat vakillari uchun yaratilgan keng shart-sharoitlardan mamnun ekanliklarini bildirib, mustaqillik va do'stlikning abadiy bo'lishini tilashdi.

Buxoroda 2025-yil **21 avgust kuni** yirik xalqaro tadbir – "O'zbekistonda Qozog'iston arxivlari kunlari" doirasida qator tadbirlar bo'lib o'tdi. Tadbir O'zbekiston va Qozog'iston arxivlarida ikki qardosh xalq aloqalariga oid arxiv hujjatlari ko'rgazmasi taqdimotlari bilan boshlandi. Mazkur ko'rgazma doirasida O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi arxivlarida saqlanayotgan, ikki davlat o'rtasidagi tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni yorituvchi noyob hujjatlar ilk bor keng jamoatchilik e'tiboriga havola etildi. Ko'rgazma tashrif buyuruvchilarga ikki xalq o'rtasidagi o'zaro do'stlik, qo'shnichilik va strategik hamkorlikning chuqur tarixiy ildizlarini hujjatlar asosida ko'rsatish imkonini berdi. Noyob manbalar nafaqat arxiv sohasi mutaxassislari, balki yosh tadqiqotchilar, talabalar, tarix ixlosmandlarida ham katta qiziqish uyg'otdi. Ular ilmiy-amaliy ahamiyati bilan birga, ma'naviy va madaniy qadriyatlarni asrash, tarixiy xotirani jonlantirish borasida ham katta tarbiyaviy va strategik ahamiyatga ega. Ushbu munosabatlar O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlikni mustahkamlash yo'lida yangi sahifa ochdi.

2025-yil **23-avgust kuni** Buxoro shahrida, O'zbekiston Nogironlar Assotsiatsiyasi tomonidan "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash" mavzusida seminar

o‘tkazildi. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlis xuzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qullab-quvvatlash jamoat fondi, O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzurdagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi vakillari, O‘zbekiston Nogironlar Assotsiatsiyasining Buxoro viloyat xududiy bo‘limi va Toshkent shaxar xududiy bo‘limi, boshka nogironligi bo‘lgan shaxslarni xuquqlarini ximoya qiluvchi nodavlat notijorat tashkilotlar ishtirok etdi.

Seminar doirasida nogironligi bor shaxslar uchun odil sudlov imkoniyatlarini ta’minlash, turmushning turli jabhalarida, jumladan jinsi va yoshi asosidagi aqidalar, noo‘rin qarashlar hamda zararli odatlar bilan kurashish masalalari, shuningdek, jismoniy to‘siqsiz muhit yaratilishining qonuniy asoslari yuzasidan ma’ruzalar tinglandi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi PF–124-sonli farmonida belgilangan fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati O‘zbekiston Nogironlar Assotsiatsiyasi raisi tushuntirilib, undan samarali foydalanish uchun ishtirokchilarga tavsiyalar berildi. Tadbir yakunida qatnashchilar mutaxassislardan o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar va seminarning samaradorligini yuqori baholadilar. Shu bilan birga, bunday tadbirlarni yanada ko‘proq o‘tkazish zaruriyatini qayd etishdi. Mazkur tadbir O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi ko‘magida tashkil etildi.

Joriy yilning **12-sentyabr kuni soat 10:00** da Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi va Millatlararo munosabatlar va xoriydagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi bilan birgalikda “Mamlakatimizda yashovchi turli millat va elat vakillarini umummilliy qadriyatlar atrofida birlashtirishda ijtimoiy hamkorlik istiqbolari” mavzusidagi onlayn va oflayn shaklda Seminar-trening o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Seminarda Milliy madaniy markaz rahbarlari Ko‘zi ojizlar jamiyati Buxoro viloyat hududiy bo‘linmasi Karlar jamiyati viloyat hududiy bo‘linmasi Nogironlar assotsiatsiyasi hududiy bo‘linmasining choraklik hisoboti tinglandi.

2025-yil 26-sentyabr kuni Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondi Buxoro viloyati bo‘linmasi tashabbusi bilan “Qizil yarim oy” jamiyati viloyat bo‘linmasi bilan hamkorlikda viloyat ko‘p tarmoqli bolalar shifoxonasining onkologiya va nevrologiya bo‘limida davolanayotgan bolajon uchun “Menga umr baxsh et” xayriya aksiyasini o‘tkazdi. Unda Xalq deputatlari viloyat, tuman Kengashi deputatlari, Jamoat fondi viloyat bo‘linmasi xodimlari, viloyatdagi milliy madaniy markazlar rahbarlari va ularning a‘zolari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Viloyat ko‘p tarmoqli bolalar shifoxonasining onkologiya va nevrologiya bo‘limida 27 nafar bolalar davolanmoqda. Ularning sog‘lom bo‘lishlari uchun barcha shart- sharoitlar yaratilgan.

Onkologik kasallikka chalingan bola ko‘pincha uzoq davolanish jarayonlarini boshdan kechiradi. Bu davrda uning dunyoqarashida qiyinchiliklar, qo‘rquv va tushkunlik

holatlari paydo bo‘lishi mumkin. Aksiya doirasida bolalar bilan samimiy muloqot qilindi. Ularni diqqat bilan tinglash ularga kuch-quvvat berdi. Turli o‘yinlar, ijodiy mashg‘ulotlar, kitobxonlik soatlari orqali ularning kayfiyati ko‘tarildi. Ularga ruhan dalda berdi.

Ayniqsa viloyat qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari tomonidan tayyorlangan dastur bolajonlarga yaxshi kayfiyat bag‘ishladi.

Hisobot davrida bo‘linma tomonidan jami **37 marta** faoliyati “ISTIQLOL-TV”, “BUXORO- TV”, “Buxoronoma” O‘zA “Buxoro yoshlari” “Tezkor yangiliklar” boshqa OAVlarida e‘lon qilindi.

**Oliy Majlis huzuridagi
Fuqarolik jamiyati institutlarini
qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi
bo‘linma rahbari**

Z.Komilov